

BANKDA AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARI TAHLILI**Kazakbayeva Saida Muratjanovna**

Toshkent kimyo xalqaro universiteti,

“Moliya” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174670>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirish tartibi va boshqarish bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar tahlili, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, aktiv operatsiya, passiv operatsiya, boshqarish.

ANALYSIS OF ACTIVE AND PASSIVE OPERATIONS IN THE BANK

Abstract. This article examines the analysis of statistical data related to the order and management of active and passive operations in commercial banks, the theoretical views of foreign and domestic economic scientists.

Keywords: commercial bank, active operation, passive operation, management.

АНАЛИЗ АКТИВНЫХ И ПАССИВНЫХ ОПЕРАЦИЙ В БАНКЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ статистических данных, связанных с порядком и управлением активными и пассивными операциями в коммерческих банках, теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых-экономистов.

Ключевые слова: коммерческий банк, активная операция, пассивная операция, управление.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan shiddatli o‘zgarishlar barcha sohalarda innovatsion yondoshuvlarni talab etmoqda. Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan tijorat banklarining xalqaro andozalarga mos ravishda faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarining raqobatbardoshligi, likvidliligi, daromadliligi va mijozlar talabiga mos tarzda xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bank operatsiyalari hisoblanadi.

Bu o‘z navbatida tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish asosiy yo‘nalishlardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017.

Shuningdek, 2017 yil 12 sentabrda PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»²[2], 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida»³[3], 2019 yil 9 oktabrdagi PQ-4487-son «O'zbekiston Respublikasi banksektorining moliyaviy barqarorligini oshirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»⁴ [4] qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan islohotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Banklar oldiga bank tizimini transformatsiyalash va isloh qilish, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish, muammolarga yechim izlash yo'llari belgilab berilgan.

Bank tizimini yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan va tutilmagan inqirozlarga qarshi himoya yostiqchalarini shakllantirish strategik yechimlarni izlab topish va joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining daromadiga, barqarorligiga va likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bank aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish uni balanslashtirish, risklarni kamaytirish, resurslarni samarali joylashtirish tijorat banklari oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish borasida iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz xorijlik iqtisodchi olim D.Xogan⁵ [5] - turli so'rovnoma usullari yordamida, uzoq muddatli omonatlarga ega bo'lgan mijozlar, ularning qarz va obligatsiya portfelining hajmi va tarkibi, ularning kapital va daromadning maqbulligi o'rtasidagi aloqa mavjudligini ko'rsatgan. Uning asosiy xulosasishundan iboratki, bank uchun ssuda bo'yicha xarajatlar o'rtacha omonatlar miqdori va ular bankda saqlanadigan vaqt bilan belgilanadi. D.Xogenning fikriga ko'ra, banklar nafaqat aktiv portfeli tarkibini, balki omonat/ssuda nisbatini boshqarishi kerak, bunda boshqaruv jarayoni statik emas, balki dinamik tavsifga ega bo'lishi lozim deb hisoblaydi.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olim U.Sharp esa keyingi tadqiqotlar uchun boshlang'ich nuqtasi sifatida G.Markovis tadqiqot natijalari ishlatiladi, tadqiqot jarayonida u Markovis modelining moliyaviy aktivlar narxlariga ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2017 yil 12 sentabrda 3270-son bilan tasdiqlangan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 2018 yil 23 martda 3620-son bilan tasdiqlangan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi bank sektorining moliyaviy barqarorligini oshirishga oid birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 2019 yil 9 oktabrda PQ-4487-son bilan tasdiqlangan.

⁵ Hogan D. Tijorat bankining krediti va investitsiya siyosati. Illinoys universiteti, 2013 yil.

Har bir riskli aktivning talab va taklifini muvozanatlashtirish maqsadida moliyaviy aktivlarning narxi istalgan vaqtda o'zgarishini faraz qilib, u riskli aktivlar bo'yicha kutilayotgan daromadlarning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lishi kerakligini ko'rsatadi⁶ [6].

Shuningdek, iqtisodchi olim S.M.Ilyasov quyidagi ta'rifni beradi: "Aktiv va passivni boshqarish jarayoni ruhsat etilgan maksimal miqdordagi resurslar (o'z va qarz mablag'lari)ni jalb qilish va ularni likvidlik darajasiga va cheklangan risk darajasiga ega bo'lgan eng foydali aktivlarga joylashtirishga qaratilgan⁷"[7].

Shunga o'xshash g'oyani iqtisodchi olim Ye.V. Velik ham ilgari suradi: "... aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi kredit muassasasining to'lov qobiliyati va likvidligini ta'minlashda kiritilgan kapitaldan qisqa va uzoq muddatda maksimal darajada foyda olishdan iborat⁸"[8].

Iqtisodchi V.Yu. Polushkin quyidagilarni qayd etadi: "Aktiv va passivlarni boshqarish moliyaviy menejmentning ajralmas qismi bo'lib, bank institutlarining moliyaviy risklarini minimallashtirga imkon beradi". Bu ta'rif xorijiy mualliflarning talqiniga yaqin, chunki aktiv va passivni boshqarishga bo'lgan munosabat risklarni minimallashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Yana V.Yu. Polushkinning fikricha "Bank operatsiyalarining barqaror daromadligini ta'minlash maqsadida samarali va muvozanatlashgan holda aktiv va passivni boshqarish bankning moliyaviy holati va kreditga layoqatliligini yakuniy baholashni oshiradi".

Barqaror iqtisodiy o'sish jarayonlari tijorat banklarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro talablarga mos ravishda faoliyat yuritish muhim omil hisoblanadi. Bunga aktiv va passiv operatsiyalarni samarali boshqarish mexanizmini shakllantirish orqali erishiladi.

Bugungi kunda tijorat banklarining umumiy statistik ma'lumotlarini tahlilini amalga oshirish orqali bank tizimidagi mavjud muammolarni va ijobiy o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Tijorat banklarini xalqaro moliya institutlari ko'magida transformatsiya qilishdan kutilayotgan asosiy natijalardan biri bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish, faoliyatga xalqaro tajribani olib kirishdir.

⁶ Sharpe W.F. Kapital aktivlari narxlari: xavf sharoitida bozor muvozanati nazariyasi // Moliya jurnali. 2014 yil sentyabr. P.425-442.

⁷ Ilyasov S.M. Banklarning aktivlari va passivlarini boshqarish // Pul va kredit 2000. No 5. P.20.

⁸ Velik E.V. Aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonining reinjiningi // Buxgalteriya hisobi va banklar. 2001 yil. № 9. P.36.

Qolaversa, kredit tashkilotlarini ularga xos bo'lmagan funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orqali ma'muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish, zamonaviyaxborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmati turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zlanmoqda [13].

Bizga ma'lumki, aktiv va passiv operatsiyalar tijorat banklari faoliyatining asosiy o'zagi hisoblanadi. Quydagi operatsiyalar orqali bank o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali yo'naltirib foyda oladi. Buning uchun banklar tashqi va ichki bozordayuzaga kelgan holatlarni, bankning kunlik holatni tezkor tarzda tahlil qilishi, bank aktivlari tarkibini va diversifikatsiyasini boshqarish orqali erishiladi. Aktiv operatsiyalarning asosiy daromad keltiruvchi turi bu kredit operatsiyalari bo'lib, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bank aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarishda avvalo bank resurslarini jalb qilish omillarini tahlil qilish lozim. Tijorat banklari resurslarini barqarorligi aktivoperatsiyalarni risksiz boshqarish imkonini beradi. Shunday ekan ijobiy natijalarga erishishda tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarni innovatsion boshqarish strategiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribadan shuni ko'rish mumkinki, aktivlar diversifikatsiyasi siyosati, faqatgina kredit operatsiyalaridan emas balki qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar va noan'anaviy kredit operatsiyalarda yuqori ulushga ega.

1-jadval

Tijorat banklarining kapitali va aktivlari daromadliligi tahlili

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
ROE (Return on Equity)	12,6%	10,8%	12,8%	16,9%	10,1%
ROA (Return on Assets)	2,02%	1,7%	1,6%	2,0%	2,3%
Net Profit Margin	8,5%	7,9%	9,1%	10,2%	9,4%
Revenue Growth	5,3%	3,6%	4,2%	6,1%	5,5%
EPS (Earnings per Share)	2,75	3,10	3,50	4,20	3,85
Debt-to-Equity Ratio	0.45	0.50	0.55	0.52	0.48

Izohlar:

Net Profit Margin: Sof foyda marjasi, ya'ni kompaniyaning savdo hajmiga nisbatan qancha sof foyda olgani.

Revenue Growth: Yillik daromad o'sish sur'ati.

EPS: Bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda miqdori.

Debt-to-Equity Ratio: Kompaniyaning qarz va kapital o'rtasidagi nisbati.

Ushbu jadvalda tijorat banklarining kapitali va aktivlari daromadliligi ko'rsatkichlarining 5 yil davomida o'zgarish tendensiyasi keltirilgan. 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ROA 2,3% ni, ROE 10,1 % ni tashkil qildi. 2020-2024 yillar oralig'ida tijorat banklari kapitali daromadliligi darajasi 2,5 foizga pasayganini, bank aktivlarining daromadliligi esa 0,3 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Bu esa banklar o'z kapitalidan va aktivlaridan yetarli daromadga ega bo'lmaganligidan darak beradi. Shu o'rinda bank aktiv va passivlarini boshqarishga doir muammolarni hal etish dolzarbligini anglatadi.

Bank tizimida passivlar tarkibida resurs jalb qilishning asosiy manbalaridan biribu depozit operatsiyalari bo'lib, ularni muddatlari bo'yicha tahlil qilamiz.

Xulosa qilib aytganda tijorat banklari resurlarni barqarorligini ta'minlash bo'yicha muammolarni yechishda avvalo bank boshqaruv organlarining faoliyatlarini tizimlashtirish, mijozlar bilan ishlash strategiyasini rivojlantirish va shu asosda banklarning aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion boshqarish metodologiyasini takomillashtirish imkoniga ega bo'lamiz.

Banklarni innovatsion boshqarishning o'ziga xos xususiyati ular asosan jalb qilingan mablag'lar bilan faoliyat yuritayotganligida namoyon bo'ladi, ularning faoliyatining xavfli jihati ishonib topshirilgan pulning xavfsizligi uchun javobgarlikni oshishi bilan bog'liq. Ushbu jihatdan bankning likvidligi va to'lov qobiliyatida samarali boshqaruv alohida ahamiyatga ega.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, aktivlar va passivlarni bir vaqtning o'zida, ajratmasdan boshqarish bank likvilikning ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli aktiv va passivlarni oqilona boshqarish daromadlik, likvidlik va to'lov qobiliyatining asosiy omilidir.

Shunday ekan aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishda avvalo ularga ta'sir etuvchi makro, mezo va mikro darajadagi omillarni o'rganish asosida boshqarish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Shu bilan birga tijorat banklari faoliyatidagi boshqaruv sifati va tashqi muhit holati mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga, raqamli iqtisodiyotni rivojlanish darajasiga, tashqi aloqalarga bog'liq.

Fikrimizcha, moliya bozorida bank faoliyatiga turli ta'sirlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini tahlil qilib borish; bank aktiv va passiv operatsiyalarini tavakkalchilik darajasini baholash va nazoratga olish; aktiv operatsiyalar ishtirokchilarini to'lovga qobiliyatligini aniqlash va bankning mijozlar oldidagi majburiyatlarni tahlil qilish kabi jihatlar ularni boshqarishga ta'sir etuvchi operatsion va ma'muriy omillarni baholashni taqozo etadi. Yuqorida keltirib o'tilgan amaliy va nazariy xulosalarni tijorat banklarini aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishni takomillashtirishda xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, 2017 yil 12 sentabrda 3270-son bilan tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2018 yil 23 martda 3620-son bilan tasdiqlangan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi bank sektorining moliyaviy barqarorligini oshirishga oid birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 2019 yil 9 oktabrda PQ-4487-son bilan tasdiqlangan.
5. Hogan D. Tijorat bankining krediti va investitsiya siyosati. Illinoys universiteti, 2013 yil.
6. Sharpe W.F. Kapital aktivlari narxлари: xavf sharoitida bozor muvozanati nazariyasi // Moliya jurnali. 2014 yil sentyabr. P.425-442.
7. Ilyasov S.M. Banklarning aktivlari va passivlarini boshqarish // Pul va kredit 2000. No 5. P.20.
8. Velik E.V. Aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonining reinjiningi // Buxgalteriya hisobi va banklar. 2001 yil. № 9. P.36.